N. ULUQOV

# TILSHUNOSLIK NAZARIYASI

TOSHKENT

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**NOSIRJON ULUQOV**

# TILSHUNOSLIK NAZARIYASI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan universitetlarning 5120100 – filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek filologiyasi) bakalavriat ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2016

**UO‘K: 81’1(075.8)**
**KBK 81.2O‘zb-923**
**U-45**

**U-45** **N.Uluqov. Tilshunoslik nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Barkamol fayz mediya», 2016, 192 bet.**

**ISBN 978–9943–11–358–9**

Universitetlarning 5120100 – filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek filologiyasi) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabalari uchun mo‘ljallangan mazkur o‘quv qo‘llanmada tilshunoslik fani, uning yo‘nalish va bo‘limlari, til va jamiyat, til va tafakkur, til va nutq munosabati, til birliklari va nutq birliklari, tilning tizim sifatidagi ichki tuzilishi, tillar tasnifi kabi masalalar yoritilgan.

O‘quv qo‘llanmada tilshunoslik faniga oid asosiy terminlar lug‘ati ham berilgan.

***

Данное учебное пособие предназначено для студентов 1-курса направления образования бакалавриата 51201000 – Филология и обучение языком (узбекская филология) и посвещено языкознанию, его направлениям и разделам, а также вопросам языка и общества, языка и мышления, отношений языка и речи, языковых единств и речевых единств, внутренней структуры языка как системы, классификации языков.

В учебном пособии также содержится словарь основных терминов языкознания.

***

This manual is for the first course bachelor students on the specialty 5120100-philology and teaching languages (uzbek language) of higher education. The subject of linguistics, its directions and chapters, language and society, language and opinions, language and speech relationship, language units and speech units, inner structure as a system of the language and language classifications are given in this manual.

There is also the dictionary of main terms.

**UO‘K: 81’1(075.8)**
**KBK 81.2O‘zb-923**

***Mas’ul muharrir:***
**Suyun Karimov** – filologiya fanlarl doktori, professor.

***Taqrizchilar:***
**Sharifa Iskandarova** – filologiya fanlarl doktori, professor;
**Huriniso Usmonova** – filologiya fanlarl doktori.

**ISBN 978–9943–11–358–9**

**© «Barkamol fayz mediya» nashriyoti, 2016.**

# SO‘ZBOSHI

«Tilshunoslik nazariyasi» fanining asosiy maqsadi tilshunoslik sohasining predmeti va vazifalarini yoritish, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, tilning ijtimoiy tabiati, vazifalari, shakllanishi, taraqqiyoti, tilning ichki tuzilishi va sathlari, dunyo tillari, jumladan, turkiy tillar tavsifi hamda tasnifi haqida bilim berishdir.

«Tilshunoslik nazariyasi» fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

– talabalarning o‘rta maktabda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida tilshunoslik fani bo‘yicha olgan bilimlarini nazariy hamda amaliy jihatdan boyitish;

– til va jamiyat, tilning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, tilshunoslik fani, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, predmeti va sohalari, tarmoqlari, fanlar tizimidagi o‘rni haqida tushunchalar berish;

– tilning fonetik-fonologik, leksik, grammatik sathiga oid nazariy-amaliy masalalar yuzasidan bilimlar berish;

– dunyo tillari, tillarning o‘zaro hamkorligi, tillar taraqqiyoti, tillar tasnifi, til oilalari haqida ma’lumot berish;

– talabalarni tilshunoslik fani bo‘yicha keyingi kurslarda o‘qitiladigan fanlarga nazariy jihatdan tayyorlash.

Mazkur o‘quv qo‘llanma ana shu maqsad va vazifalarni e’tiborga olgan holda tayyorlandi. Qo‘llanmada tilshunoslik fani, uning yo‘nalish va bo‘limlari, til va jamiyat, til va tafakkur, til va nutq munosabati, til birliklari va nutq birliklari mutanosibligi, tilning tizim sifatidagi ichki tuzilishi, til sathlari, tillar tasnifi kabi masalalar, tilshunoslikning boshqa sohalar bilan hamkorligi asosida yuzaga kelgan sohalarni, ta’lim yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlarini, tilshunoslik fanining so‘nggi yutuqlarini inobatga olgan holda yoritildi.

Mavzularni nazariy jihatdan yoritishda uzviylik, mantiqiy ketma-ketlik tamoyillariga rioya etildi, har bir mavzuga oid

mukammal rejalar tuzildi, tayanch so'z va iboralar belgilandi hamda nazariy masalalar ana shu rejalar asosida, tayanch so'z va iboralar negizida yoritildi. Mavzularning mazmun-mohiyatiga mutanosib jadvallar, chizmalar ham berildi. Har bir mavzudan keyin talabalarning o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun nazorat savollari, qo'llanma oxirida o'quv rejasida ajratilgan soatlar, fanning namunaviy o'quv dasturi talablariga asoslangan holda mustaqil ish mavzulari va ularga doir savol hamda topshiriqlar, referat mavzulari, ularni bajarish yuzasidan tavsiyalar, fanga oid asosiy terminlar lug'ati ham berildi.

O'quv qo'llanmani nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish, mukammallashtirishga doir taklif va mulohazalarni muallif mamnuniyat bilan qabul qiladi.